



UDK: 110.82(15)6

Shohbozbek ERGASHBAYEV,
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktorandi
E-mail: ergashbayevshohbozbek2@gmail.com

DSc, professor T. Ismoilov taqrizi asosida

YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ TA'LIMNING IJTIMOIIY-FALSAFIY VAZIFALARI

Anotatsiya

Maqolada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy vazifalari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik va falsafiy manbalar asosida uzluksiz ta'limning yoshlar shaxsiyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli, ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosni uyg'unlashtirish mexanizmlari o'rganiladi. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimining ma'naviy tarbiya bilan integratsiyalashgan pedagogik yondashuvlari, yoshlarning ma'naviy rivojlanishida axloqiy va estetik jihatlarining ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar va xorijiy olimlarning nazariy ishlari orqali uzluksiz ta'limning amaliy imkoniyatlari, yoshlar ma'naviyati va fuqarolik ongini shakllantirishdagi samaradorligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, ma'naviy dunyoqarash, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-falsafiy vazifalar, pedagogik integratsiya, madaniy qadriyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ЗАДАЧИ БЕСПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские задачи непрерывного образования в процессе развития духовного мировоззрения молодежи. На основе современных педагогических и философских источников изучается роль непрерывного образования в формировании личности молодежи и её социальной активности, а также механизмы гармонизации духовных ценностей и культурного наследия. Рассматриваются интегрированные педагогические подходы системы непрерывного образования к духовному воспитанию, анализируются социально-философские основы нравственного и эстетического аспектов духовного развития молодежи. Кроме того, на основе международного опыта и теоретических исследований зарубежных ученых демонстрируются практические возможности непрерывного образования и его эффективность в формировании духовности и гражданской сознательности молодежи.

Ключевые слова: непрерывное образование, духовное мировоззрение, воспитание молодежи, социально-философские задачи, педагогическая интеграция, культурные ценности.

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL FUNCTIONS OF CONTINUOUS EDUCATION IN DEVELOPING YOUTH'S SPIRITUAL WORLDVIEW

Annotation

This article analyzes the social and philosophical functions of continuous education in the process of developing youth's spiritual worldview. Based on contemporary pedagogical and philosophical sources, the study examines the role of continuous education in shaping youth's personality and social activity, as well as mechanisms for harmonizing spiritual values and cultural heritage. The article explores integrated pedagogical approaches of the continuous education system in spiritual upbringing, analyzing the social and philosophical foundations of moral and aesthetic aspects of youth's spiritual development. Additionally, through international experience and the theoretical works of foreign scholars, the article demonstrates the practical opportunities of continuous education and its effectiveness in shaping youth's spirituality and civic consciousness.

Keywords: continuous education, spiritual worldview, youth education, social and philosophical functions, pedagogical integration, cultural values.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish dolzarb ijtimoiy, pedagogik va falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyoqarash, insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini belgilovchi, axloqiy, estetik va intellektual jihatlarini o'z ichiga olgan kompleks hodisa sifatida qaraladi. Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi esa nafaqat individual shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta'lim tizimi yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uzluksiz ta'lim kontsepsiyasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo ta'lim tizimlarida keng tarqalgan bo'lib, u individualning hayotiy faoliyati davomida uzluksiz bilim, ko'nikma va qadriyatlarni egallashini nazarda tutadi. Falsafiy

nuqtai nazardan, uzluksiz ta'lim insonni doimiy o'sishga undaydigan, ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimi yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda ijtimoiy normativlar, etika va estetik qadriyatlarni o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi. Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish masalasi tarixan falsafiy va pedagogik tafakkurda keng muhokama qilinib kelgan. Aristotel va Platonning etik va ijtimoiy g'oyalari, Kantning axloq falsafasi, Gertsen va Deweyning tarbiyaviy nazariyalari, shuningdek, bugungi kunda uzluksiz ta'lim nazariyasi yoshlarning shaxsiyati, axloqiy va madaniy fazilatlarini rivojlantirishdagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi[1]. Masalan, Dewey pedagogik yondashuvi yoshlarni faollikka undash, tajriba orqali o'rganish va ijtimoiy muhit bilan

integratsiyalashgan tarbiya jarayonini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimida aynan shunday pedagogik prinsiplar qo'llaniladi. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi, ayniqsa XXI asr kontekstida, davlat siyosati, ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlar bilan uzviy bog'liqdir. Davlat ma'naviyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni fuqarolik ongiga yo'naltirish borasida uzluksiz ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda uzluksiz ta'lim nafaqat akademik bilimlar, balki axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[2]. Uzluksiz ta'limning yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishdagi vazifalarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, birinchi navbatda, shaxsning o'zini anglash, ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish va ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish mexanizmlarini o'rganishni talab qiladi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi yoshlarning ijodiy, tanqidiy va axloqiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Bu jarayon o'z navbatida yoshlarning jamiyatga faol integratsiyasini ta'minlaydi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Xorijiy tadqiqotlar, xususan, Mezirowning transformatsion o'qitish nazariyasi va Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm kontseptsiyasi uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini o'rganishda muhim asoslarni beradi. Mezirowning fikricha, transformatsion o'qitish shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining uzviy uyg'unlashuvi orqali dunyoqarashni kengaytiradi. Vygotskiy esa o'rganish jarayoni ijtimoiy muhit bilan doimiy interaktiv aloqada bo'lganda samarali bo'lishini ta'kidlaydi, bu esa uzluksiz ta'lim va ma'naviy tarbiya integratsiyasi uchun muhim pedagoik asos hisoblanadi[4]. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish bir qator strategik vazifalarni o'z ichiga oladi: birinchidan, shaxsning axloqiy va estetik qadriyatlarini mustahkamlash; ikkinchidan, madaniy merosni qabul qilish va unga hurmat bilan qarash ko'nikmalarini rivojlantirish; uchinchidan, ijtimoiy faollik, hamkorlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirish. Bu vazifalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda pedagogik amaliyotda uzluksiz ta'lim va ma'naviy tarbiyani birlashtirishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar ham rivojlanmoqda. Masalan, integratsiyalashgan kurslar, interaktiv treninglar, madaniy va axloqiy loyihalar, mentorlik tizimi kabi vositalar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda samarali vositalar sifatida qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, digital texnologiyalar va onlayn ta'lim resurslari uzluksiz ta'limning ma'naviy komponentlarini mustahkamlashga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogik va falsafiy tadqiqotlarda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida uzluksiz ta'limning o'rni haqida O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar jarayoni murakkab, ko'p qirrali va nazariy asoslangan yondashuvlarini taqdim etadi. Bu yondashuvlar nafaqat pedagogik amaliyot va ta'lim tizimidagi strategiyalarni tahlil qiladi, balki uzluksiz ta'lim kontseptsiyasining ijtimoiy-falsafiy ildizlarini ham o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo'limda Rakhmatov Olim Bakhramovich, Norboeva Sarvinoz Mengalievna, Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi va Nuriddin Abdugafforovich Achilovning ilmiy ishlari birlashtirilib, mavzuning ilmiy asoslari kengroq yoritiladi. Rakhmatov va Majitov tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi yoshlarning ma'naviy salohiyatini shakllantirish jarayonida ijtimoiy strukturalar bilan uzviy bog'liqligi bilan tahlil qilingan. Ularning fikricha, uzluksiz ta'lim «...shaxsning hayotiy tajribasi bilan uzluksiz rivojlanish mexanizmini yaratib, uni ijtimoiy normativlar,

axloqiy qadriyatlar va madaniy meros bilan uyg'unlashtiradi». Bu ilmiy qarash yoshlarning dunyoqarashi faqat akademik bilim orqali emas, balki ularning ijtimoiy muhit bilan uzluksiz mulqoti orqali shakllanishini ko'rsatadi. Rakhmatov va Majitov kontseptsiyasi pedagogik jarayonni ijtimoiy kontekst bilan mustahkamlash orqali yoshlarning ichki axloqiy motivlarini faollashtiradi, bu esa ma'naviy dunyoqarashning chuqur integratsiyasini ta'minlaydi. Norboeva Sarvinoz Mengalievnaning izlanishlari pedagogika va falsafa chegarasida olib borilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim jarayonida axloqiy tamoyillar va madaniy qadriyatlarining yoshlar shaxsida chuqur ildiz otishini tahlil etadi[5]. U ta'kidlaydiki, «uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning ichki axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy axloqiy normativlarni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish orqali ma'naviy dunyoqarashni mustahkamlaydi». Norboevaning yondashuvi pedagogik jarayonda axloqiy tamoyillarni faqat nazariy asosda emas, balki real amaliyot bilan uzviy bog'lab yoritadi. Bu yondashuv yoshlar tarbiyasida ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik va adolat kabi qadriyatlarini shakllantirishda uzluksiz ta'limning metodologik va kontseptual ahamiyatini ko'rsatadi. Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi ilmiy ishlarda uzluksiz ta'lim va ijtimoiy muhit o'rtasidagi integratsiyani chuqur o'rganadi[6]. U o'zining ilmiy maqolalarida ta'kidlaydiki, «jamiyatning madaniy-ijtimoiy muhitini tashkil etish orqali uzluksiz ta'lim jarayoni yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi». Turobovaning fikricha, ta'lim jarayoni maktab bilan cheklanib qolmay, keng ijtimoiy sohalar - madaniyat, sport, jamoat tadbirlari va ijtimoiy innovatsiyalar bilan uzviy bog'langan tizim bo'lishi lozim. Bu yondashuv yoshlar shaxsining ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi va ularni ma'naviy-ijtimoiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Nuriddin Abdugafforovich Achilovning tadqiqotlari pedagogik kontent va uzluksiz ta'lim vositalari orqali ma'naviy tarbiyani mustahkamlashga qaratilgan[7]. Achilov «ma'naviy tarbiya pedagogik jarayonning muhim elementi bo'lib, uzluksiz ta'lim kontenti ichida axloqiy, estetik va madaniy modul sifatida tizimli ravishda joylashtirilishi kerak» deb ta'kidlaydi. U, shuningdek, ma'naviy tarbiya jarayonida yoshlar bilan interaktiv metodlar - masalan, dialoglik darslar, proektiv mashg'ulotlar va jamoaviy muhokamalar orqali axloqiy qarashlarni chuqur idrok etishni taklif qiladi. Achilovning yondashuvi pedagogik kontentning uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy elementlar bilan boyitilishi yoshlarning dunyoqarashini mustahkamlashda innovatsion mexanizm bo'lishini ko'rsatadi[8]. Ushbu olimlarning umumiy ilmiy natijasi shundan iboratki, uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda faqat bilim berish vositasi emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida ijtimoiy normativlarni, axloqiy qadriyatlarni va madaniy tajribalarni uzluksiz integratsiya qilish mexanizmi hamdir. Rakhmatov va Majitov ijtimoiy strukturalar bilan uzluksiz ta'limning bog'liqligini ochsa, Norboeva pedagogik axloqiy tamoyillar orqali ma'naviy ongni chuqurlashtiradi. Turobova ijtimoiy muhit bilan integratsiyani, Achilov esa pedagogik kontent orqali amaliy mexanizmlarni ko'rsatadi. Shu tarzda, bu olimlarning ishlari nafaqat mavzuning ilmiy asosini mustahkamlaydi, balki uzluksiz ta'lim va yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi o'rtasidagi murakkab, ko'p qirrali va uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydi.

Metodologik qism. Maqola doirasida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy vazifalarini o'rganishda kompleks va integratsiyalashgan metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologiyasi falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari chorrohasida shakllangan bo'lib, uzluksiz ta'lim jarayonining ma'naviy-ijtimoiy funksiyalarini tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar o'zaro uzviy bog'langan holda qo'llanildi: birinchidan,

analitik metod yordamida uzluksiz ta'lim kontsepsiyasi va yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi bo'yicha mavjud nazariy manbalar chuqur tahlil qilindi, jumladan, Rakhmatov, Norboeva, Turobova va Achilovning ilmiy ishlarida keltirilgan konseptual va amaliy yechimlar tizimlashtirildi. Bu metod yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va ta'lim jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga imkon berdi. Ikkinchidan, komparativ metod orqali O'zbekiston va rivojlangan davlatlar pedagogik tajribalari solishtirildi. Shu yondashuv yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi uzluksiz ta'limning strategik vazifalari, davlat siyosati va jamiyat normativlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Bu metodologik yondashuv yordamida mamlakatimiz pedagogik tizimining xalqaro standartlar bilan mosligi va yoshlarning ijtimoiy-falsafiy rivojlanishida uzluksiz ta'limning samaradorligi baholandi. Uchinchidan, observatsion va empirik metodlar tadqiqotning amaliy qismida qo'llanilib, yoshlar bilan pedagogik intervyular, fokus-guruhlar va interaktiv treninglar orqali ma'naviy qadriyatlar va axloqiy orientatsiyalar tahlil qilindi. Bu metodlar yoshlarning axloqiy va ijtimoiy qarashlarini real pedagogik kontekstda o'rganish imkonini berdi va nazariy yondashuvlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga xizmat qildi. To'rtinchidan, sotsiologik metodlar so'rovnomalar, kuzatuv va statistik tahlillar tadqiqotning ijtimoiy komponentini mustahkamladi. Ular orqali yoshlarning uzluksiz ta'lim jarayonida o'zini qanday tutishi, ma'naviy qadriyatlarini qabul qilishi va ijtimoiy mas'uliyatni idrok etishi aniqlandi. Ushbu metodlar orqali uzluksiz ta'limning ma'naviy tarbiya bilan integratsiyalashgan pedagogik tizimdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi. Beshinchidan, falsafiy-tahliliy metod yordamida uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy vazifalari konseptual ravishda yoritildi. Bu metod, ayniqsa, Deweyning transformatsion o'qitish nazariyasi, Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm kontsepsiyasi va Rakhmatov hamda boshqa olimlarning nazariy ishlari asosida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ijtimoiy va axloqiy aspektlarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu metodlarning uzviy kombinatsiyasi maqolada quyidagi yondashuvni amalga oshirishga xizmat qildi: uzluksiz ta'lim jarayoni yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda nafaqat nazariy asos sifatida, balki amaliy pedagogik mexanizm sifatida tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uzluksiz ta'lim jarayoni yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda kompleks va ijtimoiy-falsafiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradi. Analitik va empirik metodlar yordamida o'rganilgan ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, uzluksiz ta'lim nafaqat akademik bilimlarni uzluksiz yetkazib berish, balki yoshlarning axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot ko'rsatdiki, uzluksiz ta'lim jarayoni yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, ularni jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashga undash va shaxsiy axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqali ma'naviy

dunyoqarashning mustahkam poydevorini yaratadi. Xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlarida belgilangan pedagogik tamoyillar bilan uzviy bog'langan holda, ushbu tadqiqot shuni aniqladi: uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy komponenti yoshlarning shaxsiy dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish va axloqiy hamda madaniy qadriyatlarini uzluksiz integratsiya qilishga xizmat qiladi. Empirik kuzatuvlar va so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, uzluksiz ta'limga jalb qilingan yoshlarning axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligi ancha yuqori bo'lib, ular jamiyat hayotidagi turli murakkab vaziyatlarda o'zini mas'uliyatli va faollik bilan tutadi. Shuningdek, tadqiqot yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalar va interaktiv metodlarning samaradorligini tasdiqladi. Masalan, mentorlik tizimi, interaktiv treninglar, loyiha asosida o'qitish va jamoaviy muhokamalar yoshlarning axloqiy va estetik qarashlarini chuqurlashtirish, ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytirish va ularni fuqarolik mas'uliyatiga tayyorlash imkonini beradi.

Muhokama. Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy vazifalari masalasi so'nggi yillarda nafaqat mahalliy, balki xorijiy olimlar orasida ham keng muhokama qilinmoqda. Ushbu bahslar, bir tomondan, ta'lim jarayonining transformatsion yondashuvlari orqali shaxsning axloqiy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishni, boshqa tomondan, uzluksiz ta'limning metodologik cheklolarini tahlil qilishga qaratilgan. Misol uchun, amerikalik pedagogik olim Jack Mezirow transformatsion o'qitish nazariyasida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining uzviy uyg'unlashuviga urg'u beradi. Mezirowning fikricha, o'quvchi faqat ma'lumot olish bilan cheklanmasligi, balki o'zining axloqiy qarashlarini, ijtimoiy mas'uliyatini va dunyoqarashini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishi lozim. Shu yondashuv, Mezirow ta'kidlashicha, uzluksiz ta'limning markaziy vazifasi shaxsni o'zining ma'naviy va axloqiy fazilatlarini anglashga undashdir. Biroq, ingliz olimi Stephen Ball bu kontsepsiyaga tanqidiy nuqtai nazar bilan yondashadi[9]. U uzluksiz ta'lim jarayonida transformatsion yondashuvning ijtimoiy kontekst bilan yetarlicha bog'lanmasligini, shuningdek, pedagogik metodlarning mamlakatning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Ballning bahsicha, agar uzluksiz ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy muhit bilan integratsiyalashtirilmasa, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda faqat nazariy bilimlar ta'sir ko'rsatadi, amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi[10].

Xulosa. Maqolada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'limning ijtimoiy-falsafiy vazifalari kompleks va tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uzluksiz ta'lim nafaqat akademik bilimlar va ko'nikmalarni uzluksiz yetkazib berish vositasi, balki yoshlarning axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari //Toshkent-2008. – 2008.
2. Abdullayev R. Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rnini//Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №.7.
3. Umarov E., Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. //“Sharq” nashriyoti. – 2005.
4. Tosheva N. Katta yoshdagi bolalarni oilaviy va milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalash //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №.1.
5. Kalanova S. O'zgaruvchan jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining differentsiatsiyasi //Uzbekistan: Language and Culture. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Jamoldinova O., Kenjayeva G. Sharq va g'arb tarannumi buyuk siymolar nazdida //Conferences. – 2023. – T. 1. – №. 1.
7. Narzullayev S. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar manaviyatiga
8. salbiy tasiri //Образование и наука в XXI веке. – 2025. – №. 62-2 (том 3).
9. Haydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari //O'quv qo'llanma. Toshkent.- "Kamalak" nashriyoti. – 2019. – T. 192.
10. Muxammadiyeva O., Sobirova M. Sharq va g'arb ma'naviyati.
11. Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov H. D. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi //T.:«Fan va texnologiya. – 2009. – T. 224.